

JIZZAX VILOYATIGA KIRITILGAN INVESTITSIYALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI

Xasanov Axmadjon Shodiyarovich

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qtuvchisi

Ustoboyeva Maxliyo Raxmatullo qizi

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Boltayev Otabek Amin o'g'li

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14511728>

Annotatsiya: Maqolada Jizzax viloyatiga kiritilgan investitsiyalar ularning samardorlik ko'rstkichlari, qaysi sohalar investitsiyalar orqali rivojlantirilayotgani va yana qo'shimcha investitsiya kiritilishi kerak bo'lgan sohalar haqida tanishamiz. Bundan tashqari Baxmal tumaniga kiritilgan investitsiyalar va uning mamlakatimiz hayotida tutgan o'rni va tumandagi aholini qo'shimcha ish bilan ta'minlanganligi ularning daromadlari oshganligi ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Investitsiya, Baxmal, Za'faron, "Qizil oltin", Ko'rsatkichlar, Baxo, Iqtisodiy samara, Loyihalar, Infratuzilma, Resurslar, Sanoat mahsulotlari, Ishlab chiqarish, Xizmatlar sohasi, Xorijiy investorlar, Kapital.

Kirish

Jizzax viloyatiga kiritilgan investitsiyalar o'zini oqladimi? Ushbu savol, ayniqsa, so'nggi yillarda viloyatda amalga oshirilgan iqtisodiy va infratuzilma loyihalarining samaradorligini baholash uchun muhimdir. Jizzax viloyati, o'zining geografik joylashuvi, resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Hukumatning ushbu hududga qaratilgan investitsiya dasturlari, sanoatni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu investitsiyalarning uzoq muddatli ta'siri va rentabelligi qanday bo'lganini tahlil qilish, kelajakdagi investitsiya siyosatini shakllantirish uchun muhimdir. Ushbu maqolada, Jizzax viloyatiga kiritilgan investitsiyalarni tahlil qilib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o'zini oqlashini baholaymiz.

08.04.2024

Oxirgi besh yilda Jizzax viloyatiga 4 milliard dollardan ortiq investitsiyalar kirib kelgan. 50 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 861 million dollarlik eksport qilingan.

Bu yil viloyatda 2 milliard dollarlik 400 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Ularda 11 mingta yangi ish o'rni ochiladi.

Davlatimiz rahbariga bu sohadagi rejalar taqdimot qilindi. Xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar 6 milliard 100 million dollarlik 50 ta loyihani amalga oshirishga tayyorligini bildirdi.

Loyihalar tog'-kon, mashinasozlik, elektr texnikasi, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va farmatsevtika kabi talab yuqori sohalarda. Muhimi, ularning natijasida qariyb 20 ming yangi ish o'rni yaratiladi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 597,1 mlrd. so'm, (dollar ekvivalentida 369,1 mln. AQSH doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 martaga o'sdi

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (ming. so'm)

	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024 yanvarsentabr*
Jizzax viloyati	1125,1	1361,9	2693,9	5778,9	8984,7	6 470,8	7 107,9	10 037,4	11 448,6
<i>shahar:</i>									
Jizzax	2817,9	5015,2	7254,9	14990,6	14286,5	10 739,2	12 459,6	17 947,9	19 593,5
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	1379,3	1710,4	5483,7	11648,7	11585,8	2 772,1	3 761,4	4 044,9	8 192,1
Baxmal	530,4	493,9	839,2	957,8	1256,0	3 607,0	2 867,2	2 901,6	3 436,2
G'allaorol	757,2	562,0	887,2	2265,0	1559,2	2 835,2	5 025,0	17 568,7	6 269,7
Sharof Rashidov	1068,8	714,2	1678,6	2442,4	1817,4	4 283,6	2 790,2	6 527,7	14 728,4
Do'stlik	946,4	987,2	2286,3	2536,8	1746,8	2 374,4	1 673,1	3 243,4	9 015,7
Zomin	544,1	689,2	2768,8	4416,4	6490,1	5 912,0	3 197,1	4 495,7	10 062,2
Zarbdor	814,0	1125,6	1811,8	2841,2	2177,0	2 505,7	1 986,3	2 715,5	4 018,1
Mirzacho'l	579,8	907,6	3513,9	4617,8	6062,8	4 105,5	5 012,6	7 634,0	9 944,0
Zafarobod	1521,4	808,8	4343,8	18944,9	25876,4	6 426,2	3 540,5	6 829,1	19 731,3
Paxtakor	915,6	1036,6	1561,7	5727,2	4590,0	2 007,1	5 893,5	3 510,5	4 392,9
Forish	1135,0	1092,2	1572,2	9226,2	55517,6	30 427,9	41 015,8	34 987,8	27 326,7
Yangiobod	1458,6	1422,2	3690,5	3206,8	2689,0	3 406,1	3 172,8	7 957,5	7 205,5

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi

(jami foizda)

	Korxonalar va aholining o'z vositlari	Qabul qilingan mablag'lar	ulardan:				Korxonalar va aholining o'z vositlari	Qabul qilingan mablag'lar	ulardan:				Korxonalar va aholining o'z vositlari	Qabul qilingan mablag'lar	ulardan:						
			davlat byudjeti	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lar	chet el investitsiyalari va kreditlari	Korxonalar va aholining o'z vositlari			davlat byudjeti	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lar	chet el investitsiyalari va kreditlari	Korxonalar va aholining o'z vositlari			davlat byudjeti	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lar	chet el investitsiyalari va kreditlari	Korxonalar va aholining o'z vositlari	davlat byudjeti	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lar	chet el investitsiyalari va kreditlari
Jizzax viloyati	70,2	29,8	6,3	13,7	7,6	71,2	28,8	5,8	12,8	6,3	66,8	33,2	3,1	17,6	3,1						
<i>shahar:</i>	57,3	42,7	6,6	9,3	12,6	61,3	38,7	5,3	7,3	13,8	48,5	51,5	2,4	9,5	28,7						
<i>Jizzax</i>																					
<i>tumanlar:</i>	77,8	22,2	4,8	7,8	8,2	73,4	26,6	6,2	11,4	6,3	71,9	28,1	4,1	11,8	7,5						
Amasoy	29,7	70,3	2,4	2,4	63,2	34,4	65,6	1,9	3,9	58,2	35,3	64,7	1,7	4,6	50,4						
Baxmal	70,2	29,8	6,3	13,7	7,6	71,2	28,8	5,8	12,8	6,3	66,8	33,2	3,1	17,6	3,1						
G'allaorol	63,7	36,3	2,6	3,6	26,5	68,6	31,4	1,3	5,0	19,3	57,9	42,1	1,1	5,0	23,2						
Sharof Rashidov	41,9	58,1	2,4	10,1	25,2	55,7	44,3	3,8	12,1	9,5	53,6	46,4	2,6	13,2	24,0						
Do'stlik	72,1	27,9	5,5	11,7	4,7	73,0	27,0	5,6	11,3	4,2	69,9	30,1	3,7	16,0	3,2						
Zomin	77,9	22,1	4,6	8,2	3,2	75,3	24,7	6,0	7,9	4,2	73,0	27,0	7,1	8,1	3,6						
Zarbdor	56,0	44,0	10,2	12,5	5,2	67,5	32,5	10,0	9,7	7,2	63,4	36,6	4,0	11,6	11,0						
Mirzacho'l	52,8	47,2	3,3	19,8	16,4	48,2	51,8	1,6	23,5	16,6	62,2	37,8	1,7	14,7	16,1						
Zafarobod	55,9	44,1	16,3	14,6	9,6	57,5	42,5	22,6	12,2	4,7	48,0	52,0	23,5	19,1	2,6						
Paxtakor	61,6	38,4	12,2	10,8	12,3	56,8	43,2	11,2	11,9	15,4	49,3	50,7	13,8	17,8	11,1						
Forish	63,4	36,6	4,7	11,1	9,8	55,5	44,5	4,8	15,8	11,3	63,3	36,7	5,9	14,4	9,5						
Yangiobod	41,4	58,6	6,7	7,9	39,5	48,7	51,3	7,3	9,3	28,8	51,6	48,4	5,5	7,7	19,6						

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki viloyatga kiritilayotgan investitsiyalar o'zni oqlamoqda. Kiritilgan mablag'lar sabab ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida o'sish kuzatilgan va ularning soni ham yetarlicha oshgan va bu aholi turmush ta'rzida ham o'zining ijobiy xususiyatlarini ko'rsatmoqda. Fikrimizni yanada asoslash maqsadida birgina Baxmal tumaniga ayni bir soha yo'naltirilgan investitsiyani ko'rib chiqamiz. Tumanga kiritilayotgan investitsiya jarayonlari hatto yutboshimizni ham befarq qoldirmagan desak aslo xato bo'lmaydi. Keling mavzuni quyida yana batafsilroq yoritamiz.

Jizzax viloyatining Baxmal tumanida za'faron plantatsiyalarini kengaytirish, quritish va qayta ishlash korxonasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi

BMB HOLDING Axborot xizmati ma'lumotiga ko'ra, za'faron – dunyodagi eng qimmat va noyob ziravorlardan biri bo'lib, qo'llanilish sohasining ko'pligi, yetishtirish va ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligi, sog'liq uchun foydali xususiyatlari hamda qiymati yuqoriligi nuqtai nazardan "qizil oltin" deya e'tirof etiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston hududida tashkil etilgan za'faron plantatsiyasi nafaqat mamlakatimizda, balki jahon miqyosida yaxlit hududda joylashgan eng yirik plantatsiya hisoblanib, qadr-qimmati va yuqori sifati bilan o'z o'rnini egallagan. Xususan, Jizzax viloyatida joylashgan za'faron plantatsiyalarida yetishtirilayotgan za'faron asosida BMB HOLDING tashabbusi bilan BMB Za'faron brendi yaratilib, hozirgi kunda mazkur brend ostida 20 ga yaqin za'faronli mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil 8-9 aprel kunlari Jizzax viloyatiga amalga oshirgan tashrifi davomida za'faron plantatsiyalarining umumiy yer maydonini 2 ming gektarga yetkazish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berildi. Jumladan, Baxmal, G'allaorol va Zomin tumanlarida qo'shimcha 1,6 ming gektarda za'faron plantatsiyalarini tashkil etish belgilandi.

Za'faron plantatsiyalarini kengaytirish, quritish va qayta ishlashni tashkil etish loyihasining umumiy qiymati 120 million yevroni tashkil etadi. Shundan 70 million yevro

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, 37 million yevro korxonaning o'z mablag'lari va 13 million yevro kredit mablag'lari hisoblanadi.

O'tgan davr mobaynida mazkur loyiha doirasida 60,8 million yevro investitsiyalar o'zlashtirilib, qariyb 120 ta doimiy va 25 ming nafar mavsumiy ish o'rinlari yaratilgan. Shu bilan birga, loyiha tashabbuskori tomonidan qo'shimcha ravishda kiritilgan 5 milliard so'm sarmoya natijasida 2,5 km.ga yaqin yo'llarga beton qoplamasi yotqizilishi va 25-30 km uzunlikda elektr tarmoqlari tortib kelinishi orqali aholi elektr energiyasi bilan ta'minlanishi ushbu hudud uchun nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ma'lumot o'rnida, BMB Za'faron brendi ostidagi mahsulot Yevropaning Italiya, Fransiya, Niderlandiya hamda Koreya laboratoriyalarida ikki bosqichli chuqurlashtirilgan tekshiruvlardan o'tkazilgan bo'lib, ISO 3632-1/2011 xalqaro standartlari asosida rang, hid va ta'm ko'rsatkichlari bo'yicha I kategoriya sifat darajasi sertifikatiga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, "Control Union Certifications" (Niderlandiya) tashkiloti mutaxassislari tomonidan za'faron plantatsiyasida mahsulotni ekish, yetishtirish, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish, terib olish, qayta ishlash, saqlash, qadoqlash jarayonlari to'liq o'rganilib, BMB Za'faron ga USDA ORGANIC sertifikati taqdim qilindi. USDA organic — bu AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ekologik sertifikat. Sertifikatlash faqat malakali va vakolatli USDA organic xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. USDA yoki Milliy organik standart mamlakat fuqarolarini sog'lom va tabiiy organik mahsulotlar iste'moliga o'tkazish uchun noyob milliy dasturning bir qismi sifatida qabul qilingan. Bugungi kunda USDA organic deb belgilangan mahsulotlar kamida 95 foiz ekologik toza tabiiy ingrediyentlarni o'z ichiga olishi kafolatlanadi. Qolaversa, bir necha yillik chuqur va tahliliy tekshiruvlardan keyin O'zbekiston va Xitoy idoralararo komissiyasi xulosasiga ko'ra, o'zbek za'faronini Xitoyga eksport qilish bo'yicha tegishli ruxsatnomaga ega bo'ldi. Bu orqali dunyoning eng yirik bozori ham o'zbek "qizil oltin"i uchun o'z eshiklarini ochdi. Za'faron mahsulotlari eksport 2021-yilda 1,2 million yevroni, 2022-yilda 2,7 million yevroni, 2023-yilda 4,5 million yevroni tashkil qildi. 2024-yilda 12 million yevroga teng mahsulot eksport qilish rejalashtirilgan. Shuningdek, Italiyada tashkil etilgan qo'shma korxonadan "ORO ROSSO Milano" brendi ostida 10 dan ortiq za'faronli mahsulotlar ishlab chiqarilib, Yevropa va Amerika bozorlariga eksport qilinmoqda.

Joriy yilning 8 oktyabr kuni Jizzax viloyatining Baxmal tumanida joylashgan za'faron plantatsiyalarini kengaytirish, quritish va qayta ishlash korxonasining tantanali ochilish marosimi o'tkazildi. Tadbir davomida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etildi. Press-turda, plantatsiya, za'faron piyozboshilarini namunaviy tartibda ekish jarayoni, quritish va qayta ishlash korxonasi faoliyati tanishtirildi. Za'faron tuganak piyozboshilarini 2024-yilgi ekish mavsumi joriy yilning 20 sentyabrda boshlanib, ekish mavsumi yakuniga ko'ra plantatsiyalarning umumiy maydoni 700 gektarga yetkaziladi. Shu bilan bir qatorda, mazkur yilda za'faron maydonlarida nou-xau sifatida polshalik mutaxassislar bilan hamkorlikda AgroNanoGel gidrogel mahsulotini qo'llay boshlandi. Hidrogel o'simliklar uchun suv zahirasi hisoblanadi. Uning qo'llanilishi butun vegetatsiya davrida o'simliklar uchun optimal suv sharoitlarini ta'minlaydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, qishloq xo'jaligida gidrogelning qo'llanilishi 40-45 foizgacha suvni tejash imkoniyatini beradi. Ushbu mahsulot sinov yakuniga ko'ra ommalashtiriladi, qolaversa, za'faron va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi ekinlarida suv sarfini sezilarli darajada

kamaytiradi. So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Jizzax viloyatiga amalga oshirgan tashriflari davomida berilgan ko'rsatmalarining ijrosini ta'minlash maqsadida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Kelgusida bular o'z mevasini berib, xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga katta hissa qo'shishiga xizmat qiladi.

2022 — 2026-yillarda Jizzax viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, Jizzax viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning "o'sish nuqtalari"ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Jizzax viloyatini 2022 — 2026-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Jami	Yillar kesimida				
				2022	2023	2024	2025	2026
1.	Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	hajmi (trln so'm)	1,4 baravar	25,3	29,6	34,1	39,4	44,8
		o'sish (%)		107,4	106,8	107,1	107,4	107,6
1.1	aholi jon boshiga	mln so'm	-	17,4	19,9	22,5	25,5	28,5
2.	Sanoat mahsulotlari	hajmi (trln so'm)	1,5 baravar	10,0	11,8	13,6	15,7	17,9
		o'sish (%)		107,4	107,9	108,5	109,1	109,8
2.1	aholi jon boshiga	mln so'm	-	6,9	8,0	9,0	10,2	11,4
3.	Qishloq xo'jaligi	hajmi (trln so'm)	1,2 baravar	24,9	29,2	33,8	39,1	44,3
		o'sish (%)		103,2	103,6	104,3	104,8	105,4
3.1	aholi jon boshiga	mln so'm	-	17,1	19,7	22,3	25,4	28,2
4.	Xizmat ko'rsatish	hajmi (trln so'm)	3,2 baravar	9,9	14,1	18,4	22,9	27,5
		o'sish (%)		150,8	135,4	120,6	115,6	113,4
4.1	aholi jon boshiga	mln so'm	-	6,8	9,5	12,1	14,8	17,5
5.	Qurilish ishlari	hajmi (trln so'm)	1,2 baravar	3,6	3,9	4,3	4,6	5,0
		o'sish (%)		104,3	104,2	104,3	104,6	104,8
5.1	aholi jon boshiga	mln so'm	-	2,5	2,6	2,8	3,0	3,2
6.	Budjet tushumlari	mlrd so'm	9 596,6	1 534,1	1 624,3	1 854,4	2 130,4	2 453,4
7.	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar	mlrd so'm	3 200	540	584	625	701	750
8.	Noqishloq yerlarni auksionga	gektar	272,7	41,9	50,4	59,7	61,8	58,9

	chiqarish							
9.	Ishsizlik darajasi	foiz	-	8,7	8,4	8,0	7,6	7,4
10.	Kambag'allikni qisqartirish	foiz	-	7,3	10,1	10,5	10,8	11,3
11.	Jami bandligi ta'minlanadigan aholi soni:	ming kishi	358,6	52,5	72,5	75,1	77,6	80,9

Qarorni to'liq shakli bilan Lexuz saytida tanishingiz mumkin.

2022 -2026 yil Jizzax viloyatini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarori ko'p sohalarni qamrab olgan bo'lib ularning o'sish darjalari prognozini ko'rishimiz mumkin. Qarorda sanoat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, qurilish va boshqa loyihalar ko'rilgan va yillar kesimida tahlil qilingan va qancha ishchi o'rni yaratilishi mumkinligi ko'rilgan. Lekin shuni ham e'tiborga olishimiz kerakki bu loyihalar qamrovi ayni bir sohalarga yo'naltirilgan bo'lib ba'zi jihatlarni ham e'tiborga olish kerak deb o'ylayman. Xususan qishloq xo'jaligi sohasida asosiy e'tibor dorivor o'simliklar va intensiv bog'larga qaratilgan bo'lib qishloq xo'jaligining poliz mahsulotlari kartoshka, savzi, qovun-tarvuz mahsulotlari va boshqa oziq ovqat yo'nalishlariga ham investitsiyalar kiritilsa bu aholi daromadlarini bir muncha oshirib mavsumiy ishchilar sonini ham bir necha mingga ko'paytiradi. Jizzax viloyati qishloq xo'jaligi sohasida paxta, g'alla, meva-sabzavot va chorvachilik yetishtirishni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Viloyatning geografik joylashuvi va iqlimi paxta ekinlari uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, viloyatdagi yerlar g'alla yetishtirish uchun ham mo'ljallangan. Paxta yetishtirish O'zbekistonning iqtisodiyoti uchun muhim bo'lib, Jizzax viloyati bu sohada o'zining yetakchi pozitsiyalariga ega. Ammo, paxta ekinlarining suvga bo'lgan ehtiyoji viloyatda suv ta'minoti bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Suv resurslarini boshqarish va samarali ishlatish uchun investitsiyalar kiritish zarur. Ushbu investitsiyalar quyidagi sohalarga yo'naltirilishi mumkin:

- **Agrotexnologiyalar va innovatsiyalar:** Qishloq xo'jaligi texnologiyalarini rivojlantirishga investitsiyalar kiritish. Bu yerda, ayniqsa, suvni tejash, yer unumdorligini oshirish va ekinlar uchun optimal sharoit yaratishga qaratilgan innovatsiyalar muhim.
- **Suv inshootlarini qurish:** Yangi suv inshootlarini (sun'iy suv omborlari, kanal tizimlari, suvni qayta ishlash stansiyalari) qurishga davlat va xususiy sektor tomonidan investitsiya kiritilishi mumkin.
- **Energiya samaradorligi va suvni tejash tizimlari:** Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish va suvni tejash uchun energiya samarali texnologiyalarni joriy etish. Bu yo'nalishda quyidagi sohalar: energiya tejoychi nasoslar, fotovoltaiq energiya tizimlari va boshqa yangilanish energiyalari.

Hozirgi oziq-ovqatga bo'lgan talab oshib borayotgan davrda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uni samaradorligini oshirish mamlakatimiz aholisini yetrlicha mahsulot bilan ta'minlabgina qolmay balki uni eksport qilish orqali ham iqtisodiy samaradorlikka erishish va mavsumiy va doimiy ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

References:

1. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi qarori.
3. Lexuz sayti.

4. BMB HOLDING Axborot xizmati ma'lumoti tayyorlangan maqola asosida .
5. Ilmiy iqtisodiy asosda tayyorlangan jurnallar.
6. Turli internet saytlari asosida tayyorlandi.

INNOVATIVE
ACADEMY